




QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI

2017 yilning yanvar-sentyabr oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot(xizmat) larining umumiy hajmi 46 194,3 mlrd.so'mni yoki 2016 yilning mos davriga nisbatan 103,5 foizni, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 45 982,3 mlrd.so'mni (103,5 foiz), o'rmon xo'jaligida – 63,4 mlrd.so'mni (101,4 foiz), baliqchilik xo'jaligida – 148,6 mlrd.so'mni (111,9 foiz) tashkil qildi. Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o'sishi asosan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohada ko'rsatilgan xizmatlar hajmining sezilarli darajada oshishi bilan izohlanadi.


Xususan yuqori o'sish sur'atlari Samarqand (106,1 foiz), Surxondaryo (106,0 foiz), Buxoro (105,8 foiz), Navoiy (105,6 foiz) viloyatlarida kuzatildi. Andijon (100,8 foiz) va Farg'ona (101,5 foiz) viloyatlarida esa aksincha past sur'atlar kuzatildi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida Toshkent viloyatining ulushi 15,7 foizni tashkil etdi, Samarqand va Andijon viloyatlari mos ravishda 14,0 foiz va 9,5 foiz ko'rsatkich bilan keyingi o'rinlarni egalladi. Eng kam ulush Qoraqalpog'iston Respublikasi (3,2 foiz), Sirdaryo (3,7 foiz) va Navoiy (4,7 foiz) viloyatlarida qayd etildi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmatlar)lar hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari.

2017 yilning yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining 2016 yilning mos davriga nisbatan o'sishi 103,5 foizni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 102,0 foizni, chorvachilik mahsulotlari – 105,6 foizni tashkil qildi.


Xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlar umumiy hajmining 69,2 foizi – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 29,2 foizi – fermer xo'jaliklariga, 1,6 foizi – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi

- Qishloq ho'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar
- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) ho'jaliklari



Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha hududlar kesimida taqsimlanishi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining ulushi xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha hududlarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.

Dehqonchilik



2017 yilning yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 27 869,7 mlrd. so'mni yoki 2016 yilning mos davriga nisbatan 102,0 foizni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy xajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 61,5 foizni tashkil qildi.

Hosilni yig'ib olish. Joriy yilning yanvar – sentyabr oylarida 7 380,5 ming tonna (99,6 foiz) don ekinlari ishlab chiqarildi, 2 357,4 ming tonna (103,9 foiz) kartoshka kovlab olindi, 8 695,2 ming tonna (105,8 foiz) sabzavotlar, 1 569,9 ming tonna (106,9 foiz) oziqbop poliz, 2 146,0 ming tonna (105,3 foiz) mevalar va rezavorlar, 1 270,7 ming tonna (104,5 foiz) uzum yig'ib olindi.

Chorvachilik



2017 yilning yanvar-sentyabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 17 452,4 mlrd. so'mni yoki 2016 yilning mos davriga nisbatan 105,6 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy xajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 38,5 foizni tashkil etdi.

Barcha toifadagi xo'jaliklarda chorvachilik mahsulotlarining ko'payishi go'sht ishlab chiqarish hajmining – 6,2 foizga, sut – 6,2 foizga, tuxum – 8,5 foizga o'sishi bilan izohlanadi.

2017 yilning yanvar-sentyabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 1 674,2 ming tonna go'sht, 7 327,9 ming tonna sut, 4 917,8 mln. dona tuxum, 30,1 ming tonna jun, 1 000,7 ming dona qorako'l teri ishlab chiqarildi.

Joriy yilning 1 oktyabr holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 12 111,5 ming boshga, shu jumladan sigirlar - 4 370,8 ming boshga, qo'y va echkilar - 20 330,9 ming boshga, parrandalar - 69 008,8 ming boshga etdi.

2016 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni - 536,8 ming boshga (4,6 foizga), shu jumladan sigirlar - 95,8 ming boshga (2,2 foizga), qo'y va echkilar - 363,0 ming boshga (1,8 foizga), parrandalar - 5 575,9 ming boshga (8,8 foizga) ko'paydi.